

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish..... | 7 |
| I.Tuychiyeva, Z.Axunova Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari..... | 10 |
| D.R.Yuldasheva Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar..... | 14 |
| A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati | 20 |
| I.I.Soliyev Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari | 26 |
| Sh.D.Xonbabayev Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari | 31 |
| M.S.Xoshimov Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati..... | 36 |
| L.Z.Xolmurodov Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi..... | 41 |
| A.Sh.Bazarbayeva Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar..... | 45 |
| N.Sh.Abdiyeva Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi | 54 |
| F.A.Boltayeva Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kvest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va reflektiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari..... | 59 |
| M.E.Maziyayeva Maktabgacha ta'limda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish | 63 |
| D.D.Boymirzayeva Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari | 67 |
| M.O.Ismailova Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur | 71 |
| G.O.Shaxbazova Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni | 75 |
| M.F.Bekchonova Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatlarini | 79 |
| X.A.Ibragimov Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari | 83 |
| A.T.Nazarov Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish | 88 |
| D.M.Xusanov O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati..... | 92 |
| Y.Y.Turakulov Ta'limda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri..... | 96 |
| Sh.G'.Xasanov Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlarini..... | 102 |



UO'K: 378.014.15

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK AHAMIYATI**СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****SOCIO-PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS****Xoshimov Murodjon Solijonovich** 

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati o'rganilgan, uning bugungi kundagi zarurati hamda dolzarbliligi atroflicha yoritilgan.

Аннотация

В данной статье изучается социально-педагогическая значимость развития коммуникативной компетентности учащихся младших классов, подробно освещаются ее необходимость и актуальность на сегодняшний день.

Abstract

In this article, the socio-pedagogical importance of developing the communicative competence of elementary school students is studied, its necessity and relevance today are covered in detail.

Kalit so'zlar: pedagog, kasbiy kompetentlik, klassifikatsiya, takomillashtirish, kompetensiya, kompetent yondashuv, kommunikativ.

Ключевые слова: педагог, профессиональная компетентность, классификация, совершенствование, компетентность, компетентный подход, коммуникативность.

Key words: pedagogue, professional competence, classification, improvement, competence, competent approach, communicative.

KIRISH

Muayyan nutqiy vaziyatda so'zlovchi ma'lum bir kommunikativ maqsadni ko'zlab, hamsuhbatiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Demak, diskurs tahlil o'quvchilarning erkin fikr almashish, munosabat bildirish, bir-biridan o'rganish va o'rgatishga imkon beradigan do'stona, ijodiy muhit yaratish layoqatlari obyektiv baholanibgina qolmay, boshqa jihatlarini ham, ya'ni mazkur instrumentdan foydalanish ijtimoiy faol fuqaroni, hayotda duch kelinadigan muammolarni hal qilishda vaziyatlarni ko'proq muhokama qilish, boshqalarga tushuntirib bera olishda kutilgan samarani olishga qobiliyatlari aniqlanadi. Shuning uchun ham, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini samarali rivojlan-tirishga ustuvorlik bergan ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagogik jamoalar tomonidan ushbu diskurs tahlil imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim yutuqlariga erishishni ta'minlovchi psixologik-pedagogik sharoitni yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirishda xalq o'yinlari va didaktik o'qinlardan foydalanish muammosiga mutaxassislar alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. Jumladan, Respublikamiz olimlaridan M.Abdullajonova, B.R.Adizov, A.Y.Bobomurodova, O.Jamoldinova, B.Ziyomuhamedov, G.Ibragimova, R.Ishmuhamedov, U.I.Mahkamov, M.H.Mahmudov, O.Musurmonova, D.Sharipova Sh.Sharipov, N.M.Egamberdiyeva kabilarning ishlarida bu o'z ifodasini topdi.

Xorijlik olimlardan A.Yolanda, N.Nicotera, A.Christopher, L.Botcheva, J.Shih, L.C.Huffman, L.D.Breeman, van Lier, Theo Wubbels, R.Sears, J.L.Spilt, E.Vervoort, A.Koenen, F.Clemente,

A.Amutio, L.Gonzalezlarning tadqiqotlarida o'yinlarning ijtimoiy ko'nikmalarni va tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta'limning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatiladi:

1. Refleksiya funksiya (lotin tilidan relatio - xabar) madaniyatni (ta'lim, professiogramma, fuqarolik fazilatlarini darajasida va boshqalar) ijtimoiylashtirish va pedagogik faoliyatga kirish jarayonida orttirilgan muayyan vaziyatlarni o'quvchilar tomonidan rivojlantirishga qaratilgan.

2. Regulyativ funksiya (lot. Regulare- tartibga solish, yo'nalish berish) xatti-harakatlarning muayyan standartlarini ishlab chiqishga va boshlang'ich sinf o'quvchilarining xatti-harakatlari hamda ishlarini ijtimoiy nazorat qilishga qaratilgan.

3. Aksiologik funksiya (yunoncha axios - qimmatli) har qanday ijtimoiy institutda uning barcha a'zolari yoki ularning aksariyati baham ko'radigan asosiy qadriyatlar tizimining mavjudligi bilan bog'liq.

4. Integratsion funksiya (lot. integer - yaxlit) pedagogik faoliyat maqsadlari va natijalari uchun nafaqat alohida ijtimoiy institutning muvaffaqiyatli ishlashi, balki butun jamiyat manfaatlarini ustuvor bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

5. Rivojlantirish funksiyasi pedagogik bilim va ko'nikmalarni ta'minlabgina qolmay, balki shaxsiyatni rivojlantiradigan, uni mustaqil ijodiy hayotga, haqiqiy o'zini o'zi anglashga tayyorlaydigan «inson instituti» turidir. Ta'lim bosqichlarida inson rivojlanishining asosiy mezonlari aql va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini anglash va rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi zarur, jumladan, hissiy-irodali va motivatsion-ehtiyoj jihatlarni tashkil qilish ahamiyatli.

6. Dunyoqarash funksiyasi - o'quvchilarning zamonaviy yutuqlarga mos keladigan yaxlit dunyoqarashi va munosabatini shakllantirish (fundamental fanlar). Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

motivatsiya – o'quvchilarning ijtimoiy pedagogik faoliyatning maqsadi, mazmunini anglashlari.

qiziqish – o'quvchining hayotning ijtimoiy sohasidagi zarur faoliyat va munosabat jarayoniga va uning samarasiga qiziqishning ortishi.

egallash – o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha nazariy va amaliy bilimni oshirish.

o'z-o'zini nazorat qilish – olingan natijalar tahlili va ularni kutilganlari bilan qiyoslashga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish zaruratini quyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalar asosida ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy faol sifatlariga ega bo'lishi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, unda umuminsoniy, milliy, ijtimoiy, gender(erkak va ayol), sotsiotipik va individual rivojlanishi birlashadi. Ushbu farqlarning moxiyati va tabiati, jinsiy ong faqat boshqa odamlar bilan muloqot, ijtimoiylashuv hamda tarbiya ta'sirida shakllanadi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ta'limga tezroq adaptatsiyalash va intellektual faollikka erishish mumkin bo'ladi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tez fursatda ta'limga adaptatsiya qilish asosida samarador boshlang'ich ta'limni tashkil qilishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Adaptatsiya (lot. adaptatio — moslashuv) – organizmning, masalan, sezgi a'zolarining atrof-muhit sharoitlariga moslashishi, ko'nikishi [3]. Boshqacha aytganda, organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalari shakllanishi xususiyatidir. Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va u ijtimoiy muhitda rivojlana borib uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib) va muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq uning faolligi «bola-kattalar» munosabatlari ichida tartibga solinadi. Maktabda bo'lsa, boshlang'ich ta'lim sharoitida maktab hududi, o'quv-bilish faoliyati va yangi tartib qoidalarga moslashib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limga adaptatsiyalanishiga salbiy ta'sir qiluvchi obyektiv sabablar ham mavjud:

O'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni jalb qila olmasligi.

Sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi va ular bilan alohida shug'ullanish uchun vaqtning yetishmasligi.

O'qituvchining rag'batlantirishi yoki kamsitishi.

Mavzuni anglab yetishlari uchun ko'rgazmalarning yetishmasligi.

O'qituvchi va ota-onalar tomonidan bolaning qiziqishlari inobatga olinmasligi.

Sinf jamoasida o'quvchiga tan olinish imkoniyatining mavjudligi yoki mavjud emasligi.

Ijodiy topshiriqlarning berilmasligi.

Yoshga oid topshiriqlarning berilishi yoki murakkabligi.

Aynan ijodiy tasavvurni rivojlantiruvchi manbaaning mavjud emasligi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limga adaptatsiyalash asosida ularlarning tashabbuskorligi, mustaqilligiga asoslangan, tafakkuriga mo'ljallanib, mustaqil fikrlash va ongi rivojlanishiga yo'nalgan, natijasi shaxsiy faoliyat mahsuli sifatida shakllanadigan, istiqbolda barkamol inson shaxsini rivojlantiradigan ta'limini tashkil etish va boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish hsiobalandi.

Uchinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish asosida o'quv-bilish jarayoni samaradorligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish asosida maktab o'quvchilarining bilish faolligini, tafakkurini, fikrlash tarzini va dunyoqarashini o'stirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular ichida aynan boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'quvchilarning bilish faoligi asoslari, matematik tafakkuri, hisoblash tezkorligi, atrof-muhit va olam haqidani bilimlari, dunyoqarashi, voqea-hodisalarga munosabati asosidagi fikrlash tarzi, ongli munosabatini shakllantirishga oid salmoqli ishlar ham amalga oshirilgan [2]. Ularda erishilgan natijalar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkur qamrovini yuksaltirishda muhim didaktik asos bo'lib, ular orqali boshlang'ich ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida shakllantirishga erishilmoqda.

O'qituvchi o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga, gaplashishlariga, muomala qilish ehtiyojiga loqaydlik bilan qaramasligi kerak. U suhbatlashish uchun sinf jamoasi bilan ham har bir o'quvchi bilan gaplashish uchun hamisha vaqt topishi lozim. Chunki, ayniqsa, o'quvchilar o'qituvchining o'zlariga munosabatini hamisha aniq his qiladilar, sezgirlik bilan munosabatda bo'ladilar. Ular o'z vazifasini kundalik uy vazifalarini bajarish yuzasidan topshiriqlar berishdangina iborat qilib qo'yadigan o'qituvchi bilan o'z fikrlarini, taassurotini hech qachon o'rtoqlashmaydilar. Bu esa, sinfda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasiga zarar yetkazadi.

O'quvchilar o'z o'qituvchisini yaqin do'st, sirdosh, ular bilan bir xil qiziqishlarga ega, ahil ishlay, yashay oladigan murabbiy deb bilishlari kerak. Ayniqsa, qiz bolalar nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo'ladilar. Qiz bolalarga nisbatan qilingan qo'pollik, adolatsizlik ularning xarakterida salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun o'quvchilarda xarakterni tarbiyalashning eng asosiy shartlaridan biri - talablarning aniqligi hamda bolaning o'z kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchdir. Ayniqsa, qiz bolalarning o'ziga, o'z kuchiga ishonmasligi juda xavfli bo'lib, bu odatda o'qituvchi, onalarning qiz bolaga "latta, landovur, hech narsani eplay olmaydi", deb ko'p gapirishlari oqibatida paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, qiz bolada o'z-o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonchsizlikni paydo qilish – boshlang'ich sinfda ma'naviy-axloqiy tarbiyada yo'l qo'yiladigan eng yomon pedagogik nuqson bo'lib hisoblanadi. Sinf rahbari o'quvchilardagi ijobiy fazilatlarni topa olishi hamda ulardan mahorat bilan foydalanish uchun o'quvchilardagi irodaviy kuch-g'ayratini ustalik bilan rag'batlantirib turishi, unga o'z vaqtida maslahat va ish bilan yordamlashishi, o'z imkoniyatlarini bilib olishida ko'maklashishi lozim.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra kichik maktab yoshidagi bolalarda muloqotchanlik ko'knimalarini va ijtimoiy faollikni shakllantirishda quyidagilarga e'tibor beriladi.


Tushuntirish. Amerika an'anaviy oilalarida o'quvchilarning axloqiy muammolari juda ehtiyotkorlik bilan kuzatiladi. O'quvchilar tarbiyasiga, asosan o'rnak bo'lish yoki talim orqali tasir ko'rsatiladi. Mamlakatda bola huquqlarini, asosan davlat nazoratga olgani sabab ota-onaning jazolash funksiyasi oqlanmaydi. Agar ota-onalar bolani kompyuter o'yinini o'ynash yoki sayr qilish imkoniyatidan mahrum qilsalar, unda ular o'zlarining xatti-harakatlari sabablarini tushuntirishlari kerak.

Mustaqillikka o'rgatish. Ko'plab amerikalik ota-onalar o'z farzandlarini erta yoshdan mustaqillikka ko'niktirishadi. Ular ikki yoshli bolasini ham kun davomida video kuzatuv orqali nazorat qilib yolg'iz qoldirishlari mumkin. Asta-sekin bu vaqt bir soatga oshirib boriladi. Avvaliga,

PEDAGOGIKA

bola yolg'izlikdan biroz qo'rqadi, lekin asta-sekin o'rganadi. Mustaqillik hissini bu yo'l bilan tarbiyalash bolani ulg'ayganda jamiyatning erkin bo'lagi bo'lishiga yordam beradi deb hisoblashadi.

Tanlov erkinligi. Har doim tanlov erkinligini taklif qilishadi. Bu kiyinish, o'yinchoq tanlash, oila va kasb tanlash borasida bo'lishi mumkin. Bolalarni arzimas narsalarga jalb qilishmaydi - bolaga o'z hayotiga tahdid solmaydigan narsalarni qilishga ruxsat beriladi [5].



Mas'uliyatni o'rgatish. Sir emaski, millatlarga xos fe'l-atvor xususida so'z ketganida nemis millatiga mansub odamlarga "tartibli", "qat'iyatli", "mas'uliyatli" sifatlari ishlatiladi. Germaniyaliklar o'quvchilarni ham mana shunday mustaqil o'sib-ulg'ayishlarini istashadi. Ularning fikrlaricha, bolaga hadeb e'tibor berish va uni nazorat qilish uning mustaqil va mas'uliyatli bo'lib o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Yolg'iz sayr. Yosh bolalarini ham yolg'iz sayr qilishiga ruxsat beradigan ota-onalarni boshqa yerda topish qiyin. Nemischa tarbiya sirlaridan biri ham shu – bolalar boshlang'ich sinfga chiqqach, ota-onalarisiz maktab atrofida, o'zlari istiqomat qiladigan mavze bo'ylab sayr qilishadi. Ba'zi bolalar, hatto metroda mustaqil maktabga borib kelishadi. Ruhshunos va pedagoglar ham bolaning yolg'iz sayr qilishi uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlashgan. Ammo bu bilan bolaga yolg'iz sayr qilishiga qo'yib berish kerak, degani emas.

Masuliyat topshirish. Nemislar bolalar zehni bo'lib ulg'ayishi uchun unga ishonch berilishi kerakligini ko'p takrorlashadi. Oilaviy dasturxon uchun novvoyxonadan non olib kelish vazifasini ota-onalar bolalariga kichikligidayoq topshirishadi. Bu ham ularning mas'uliyatli bo'lib o'sishlariga yordam beradi [1].

Shaxsni erta ulg'aytirish. Mamlakatda farzand tug'ilishi bilanoq shaxsga aylanadi. Gollandlarda bolalarga baqirish, ayniqsa, ularni urish mumkin emas (buning uchun ota-onalik huquqidan mahrum etiladi). Shu sababli bolalar ham erkin va jur'atli etib tarbiyalanadi. Ular tanish-u notanish kimsa (masalan, avtobus haydovchisi, sotuvchi) bilan bemalol suhbatga kirishib ketaveradi.

Bolaga hurmat. Kattalar notanish bo'lsa-da, kichkintoy bilan hurmat yuzasidan muloqot qiladilar, uning savollariga e'tibor bilan javob beradilar. Gollandiyada bolalarning huquqi yuqori darajada himoya qilingan, ular uchun hamma sharoitlar yaratib berilgan.

Jamoatga erta moslashuv. Inglizlar bola tug'ilgan kundanoq uni jamoat orasiga olib kirishadi. Bu yerda do'konlarga, kafelarga va boshqa jamoat joylariga ham yangi tug'ilgan chaqaloq bilan borish urf bo'lgan. Juda kichkinaligidan bolalarni suzishga o'rgatishadi.

Bolaga qarash jadvali. Oilada bolaga qarash jadvali ishlab chiqilgan: onalar kunduzi, otalar kechqurun ishdan keyin bola boqishadi. Dam olish kunlari esa kichkintoylar buvi va bobosinikiga jo'natiladi.

Erkin ta'lim muhiti. Maktablarda juda erkin muhit, o'qituvchilar bolalar bilan teng turib muloqot qiladilar, majburlab doskaga chiqarmaydilar, bola o'zi istasagina o'qituvchining savoliga qo'l ko'tarib javob beradi. Iliq kunlarda ko'pincha darslar xiyobonlarda, bog'larda o'tkaziladi. Har bir maktabning o'z futbol, kriket maydonlari, tennis kortlari bor. Ularda qizlar va o'g'il bolalar teng huquqda mashg'ulot o'tkazadi [4].

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish, ularda muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish ularning o'quv-bilish faoliyatidagi faolligini ta'minlash bilan birga ijtimoiy sifatlarni shakllanishiga ham asos bo'ladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativlik sifatlari ularning shaxs sifatidagi ko'nikmalarining asosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shukhrat Sattorov. <https://farzand.uz/uz/post/farzand-tarbiyalashning-nemischa-usul>
2. Абдуллаева Б.С. Бошланғич таълим мезонлари // Бошланғич таълим. ИМЖ.- Т., 2017- № 4.- Б. 15,94.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006. –Б.39.
4. <https://foras-beauty.ru/uz/vtorye-blyuda/chem-otlichaetsya-vospitanie-za-rubezhom-ot-vospitaniya-detei>.
5. <http://maqolalar.uz/pedagogika-va-psixologiya/pedagogika/952-maktabgacha-eshdagi-bolalar-tarbiyasida-kitobning-aamiyati-va-rnini-uchaytirish-omillari.html>